

An'anaviy banklar va FinTech kompaniyalari o'zaro raqobat bilan birga hamkorlikni ham yo'lga qo'yishi moliya tizimi rivojlanishiga yanada katta hissa qo'shadi. Chunki an'anaviy banklarning tajribasi va FinTech kompaniyalarining innovatsion texnologiyalari birlashtirilsa, moliyaviy xizmatlar aholiga qulay va keng miqyosda yetib boradi. Shu bilan birga, FinTech sohasini samarali nazorat qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi: nazorat yetarli bo'lmasa moliyaviy xavflar ortadi, haddan ziyod nazorat esa innovatsiyalarni sekinlashtiradi. Shuning uchun davlat FinTech sohasini qo'llab-quvvatlash bilan birga, mijozlar manfaatlari va moliyaviy barqarorlikni himoya qiluvchi muvozanatli nazorat tizimini shakllantirishi zarur.

FinTech xizmatlari rivojlanishi bank tizimidagi raqobat muhitini tubdan o'zgartirmoqda va an'anaviy tijorat banklarini yangi sharoitlarga moslashishga majbur etmoqda. O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlari, mobil ilovalar va onlayn kreditlash platformalarining kengayishi moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirmoqda. Biroq, monopoliya, infratuzilma zaif tomonlari va malakali kadrlar yetishmasligi raqobat muhitining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Davlat tomonidan moliya tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish borasidagi izchil siyosat ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlamoqda. Mavjud to'siqlarni bartaraf etish orqali FinTech xizmatlari bank tizimi samaradorligi va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini sezilarli oshirishi mumkin.

RAQAMLI BANKLARNING O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMI RAQAMLASHUVIGA TA'SIRI

Xidirov Nodir G'iyosaliyevich

TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedراسi professori, PhD

G'ulomova Maxliyo Murodbek qizi

TDIU, "Moliya" fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirish jarayonida raqamli banklarning o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan raqamli banklarning innovatsion yechimlari, moliyaviy inklyuziya, xizmat sifati va operatsion samaradorlikka ta'siri o'rganilgan, xorijiy tajriba asosida esa rivojlanish istiqbollari va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari moliya tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli banklar, moliya tizimi, raqamlashtirish, masofaviy bank xizmatlari, moliyaviy inklyuziya, elektron to'lovlar, raqamli transformatsiya.*

Moliya va bank tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Markaziy bank siyosati, asosiy stavka mexanizmi,

kredit tizimi samaradorligi hamda raqamli bank xizmatlarining kengayishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

So'nggi yillarda bank sektorida raqamlashtirish jarayonlari tezlashib, moliyaviy xizmatlar sifati va tezkorligi oshmoqda. Bu bank tizimi samaradorligini kuchaytirish bilan birga, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Shu sababli, bank tizimi rivojlanishi va iqtisodiy chuqurlashuv jarayonlarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy iqtisodiyotning raqamlashuvi moliya tizimida tubdan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli bank — bu barcha bank xizmatlarini jismoniy filiallar va an'anaviy infratuzilmasiz, to'liq raqamli platforma orqali taqdim etuvchi moliya institutidir²²⁹.

Bunday banklarga “internet bank”, “mobil ilova”, “virtual karta” va integrallashgan to'lov platformalari misol bo'ladi. O'zbekistonda Anorbank, TBC, Uzumbank va Hayotbank kabi banklar 100% raqamli bank sifatida tashkil etilgan bo'lib, ularning xizmatlari to'liq masofaviy tarzda ko'rsatiladi²³⁰. Raqamli banklar orqali operatsion xarajatlar kamayadi, moliyaviy inklyuziya kengayadi va mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish ta'minlanadi²³¹.

O'zbekiston Respublikasida raqamli moliyaviy xizmatlar sohasini tartibga solish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida Markaziy bank tomonidan izchil va samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan, raqamli bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida platformalarga qo'yiladigan talablar, iste'molchilarga taqdim etiladigan minimal axborot hajmi, ma'lumotlar xavfsizligi hamda mijozlar murojaatlarini ko'rib chiqish tartibini belgilashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza shakllantirilmoqda²³². Bu boradagi chora-tadbirlar raqamli moliya xizmatlari bozorida shaffoflikni oshirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda raqamli bank xizmatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada raqamli banklarning barqaror va xavfsiz muhitda rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratilmoqda.

Zamonaviy bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bank faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli transformatsiya bank xizmatlarini avtomatlashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va operatsion samaradorlikni kuchaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari bank xizmatlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha yangi strategik imkoniyatlar yaratadi. Jahon bank tizimida texnologik modernizatsiya raqamli xizmatlarni kengaytirish orqali mijozlar ehtiyojlarini

²²⁹ Zikrillayev J. S., Nasimov B. V. Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2024. — №1 (yanvar). — B. 583–588.

²³⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar. — 2024. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/>

²³¹ Nomozova S. Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi // Наука и технология в современном мире. — 2024. — №3(13). — B. 144–147.

²³² Markaziy bank. “Raqamli moliyaviy xizmatlar iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishga doir talablar to'g'risidagi nizom” loyihasi, 16-may 2025. — [cbu.uz / regulation.adliya.uz](https://cbu.uz/regulation.adliya.uz)

qondirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va banklarning o'sish sur'atini jadallashtiradi.

O'zbekiston Respublikasida moliya tizimini raqamlashtirish jarayonlari davlat darajasida ham faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan "2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi"da budget jarayonlarini raqamlashtirish qamrovini kengaytirish, davlat moliyasini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda moliyaviy jarayonlarning samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan²³³. Ushbu strategik yo'nalishlar mamlakat moliya tizimida raqamli banklar va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning rolini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi hamda moliyaviy xizmatlarning shaffofligi va tezkorligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonda moliya tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda. Moliyaviy hisobot tizimini takomillashtirish, shaffoflik va ishonchlilikni oshirish borasidagi chora-tadbirlar investorlar uchun qulay muhit yaratish va bank sektorida raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari mavjud salohiyatdan orqada qolmoqda. Bunga monopoliyaning mavjudligi, internet sifati bilan bog'liq muammolar, axborot texnologiyalari qonunchiligining zamonaviy talablarga to'liq mos emasligi, aholining kompyuter savodxonligi pastligi va malakali kadrlar yetishmasligi sabab bo'lmoqda.

Mavjud muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali O'zbekiston raqamli iqtisodiyot va bank tizimini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishib, xalqaro moliya tizimiga integratsiyani kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli banklar iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida moliya tizimining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Ular orqali moliyaviy xizmatlar tezkor va samarali taqdim etilib, moliyaviy inklyuziya kengaytirilmoqda, operatsion xarajatlar kamaytirilmoqda hamda iqtisodiy faollik oshirilmoqda. Kiberxavfsizlik, qonunchilik bazasi va raqamli savodxonlik kabi muammolar izchil hal etilsa, O'zbekistonda raqamli bank tizimining rivojlanishi milliy moliya tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi.

²³³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi "2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 210-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-7469803>